

# FERROKOMED

KO'P KOMPLEMENTLI, ANTIANEMIK INNOVASION  
PREPARAT

QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

Preparatni qabul qilishdan avval yo'riqnomani o'qib chiqish tavsiya qilinadi, unda siz uchun muhim va foydali ma'lumotlar mavjud. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun siz davolovchi shifokorga yoki farmasevtga xamda to'G'ridan to'G'ri kompaniyaga murojat qilishingiz mumkin

**Preparatning savdo nomi:** Ferrokomed

**Ta'sir etuvchi moddalar:** Glutafer, kobavit, glutamed

**Chiqarish shakli:** Tabletkalar, blisterlarda va flakonlarda

**Tarkibi:** 1 tabletkalar quyidagi faol moddalarni saqlaydi:

- glutafer (temir (III) glutamin kislotasi bilan majmuasi) – 0,020 g (5,6 mg elementar temirga ekvivalent);

- kobavit (kobaltning glutamin kislotasi va vitamin U bilan majmuasi) – 0,010 g;

- glutamed (mis (II) glutamin kislotasi bilan majmuasi) – 0,005 g.

**Yordamchi moddalar:** Qand, kraxmal, kaltsiy stearat yoki stearin kislotasi

**Farmakoterapevtik gruxi:** Eritropoezni rag'batlantiruvchi vositalar.

## Faramakologik xususiyatlari

Ferrokomed majmuaviy uch komponentli anemiyaga qarshi preparat.

Preparatning eritropoezni rag'batlantiruvchi sifatidagi yaqqol klinik samarasi bir vaqtda uning tarkibiy qismlarining xususiyatlari, hamda makro - va mikroelementlarning tirik organizmdagi shakllariga eng yaqin bo'lgan, ularni yagona tarkib – biokomplekslar bilan bog'langanligi bo'lib, bu ularning biokiraolishligini, endogen faolligini ahamiyatli oshishiga yordam beradi.

Preparatning faol komponentlari tarkibiga kiruvchi temir, kobalt va mis hayotiy muhim elementlar hisoblanadi.

*Temir* tizimli va hujayra aerob metabolizmi, hamda organizmning oksidlanish – qaytarilish gomeostazini etarli darajada ta'minlaydigan turli oqsil va fermentlarning almashinmaydigan komponenti hisoblanadi.

Odam organizmida mavjud temir saqlovchi komplekslar ikki guruhga bo'linadi: porfirinli va porfirinsiz. Porfirin guruhiga gemoglobin, mioglobin va gemm saqlovchi fermentlar – tsitoxromlar, tsitoxromoksidaza, katalaza, peroksidaza kiradi. Temirning porfirin saqlamaydigan guruhini

transferrin, ferritin, gemosiderin va ba'zi temir proteinalari tashkil etadi.

Gemoglobin eritrositlar tarkibiga kiradi, ularning yosh shakllarida sintezlanadi. Gemoglobin ekzogen kislorod va endogen karbonat anhidrid gazining tashuvchisidir. Mioglobin yurak va skelet mushaklarining nafas oqsili bo'lib, kislorodni tashiydi va uning mushaklardagi miqdorini boshqaradi. Ferritin va gemosiderin asosan jigar, taloq va suyak ko'migining retikuloendotelial hujayralarining zaxira temirini tashkil qiladi. Transferrin temirni tashiluvchi shakli bo'lib xizmat qiladi. Temir saqlovchi fermentlar va hujayralarning porfirinsiz temiri mitoxondriyalarda saqlanadi, nafas va katalitik vazifalarni bajaradi, oksidlanish – qaytarilish jarayonlarida ishtirok etadilar.

Kobavitni strukturasi shakllantiruvchi element hisoblangan *kobalt* mikroelementi organizmda o'ta muhim ro'l o'ynaydi. U oqsil, yog'va uglevodlar almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, organizmda A, C va K vitaminlari, shuningdek V guruhi Vitaminlarining to'planishiga yordam beradi, oqsillar, nikotin kislotasi, peridoksin va NAD sintezini kuchaytiradi. Antioksidant tizimining fermentlarini faollashtiradi, asosiy almashinuvni, to'qima nafasi jarayoni va azot almashinuvini yaxshilaydi. Uning ta'siri ostida mineral almashinuvini oshadi, shu jumladan temir, kaltsiy va fosforning o'zlashtirilishi ham kuchayadi.

Kobalt, temir va mis ishtirokida, qon xosil qilish tizimining faolligini ahamiyatli oshiradi. Bunda kobalt eritrositlar hosil bo'lish jarayonini rag'batlantiradi, suyak ko'migining qon xosil qiluvchi xususiyatlariga bevosita ta'sir etadi, protoporfirin sintezini boshqaradi va shu orqali gemoglobin sintezini tezlashtiradi. Eritropoetin xosil bo'lishini rag'batlantiradi, retikulositlarning miqdorini oshiradi, suyak ko'migining giperplaziyasini chaqiradi, suyak sariq ko'migini qizil suyak ko'migiga aylanishiga va qon yaratilish ekstramedulyar o'choqlarini paydo bo'lishiga yordam beradi.

Glutamed tarkibiga kiruvchi *mis* qon xosil bo'lish, osteogenez, pigmentasiya va keratizasiya jarayonlari uchun zarurdir. Misning ro'li uni qator fermentlar va oqsillar qurilishidagi ishtiroki bilan

"T A S D I Q L A N G A N"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI  
SAQLASH VAZIRLIGI

Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini  
nazorat qilish bosh boshqarmasi

belgilanadi. U biologik oksidlanish va ATF generatsiyasi jarayonlarida, biriktiruvchi oqsillarni (kollagen va elastin) sintezini, tizimli va xujayra metabolizmini boshqaradi, glikoliz va to'qima nafasini faollashtiradi. Mis eritrositlar va jigarining murakkab oqsillari tarkibiga kiradi, temirni gemm tarkibiga kiritilishini katalizlaydi, eritrositlarning erta bosqichlardagi rivojlanishiga yordam beradi.

Qondagi xolesterin darajasini kamaytiradi va elastinning ko'ndalang bog'lanishi uchun zarur bo'lgan desmozin va izodesmozin sintezida ishtirok etishi xisobiga aorta devorlarining emirilishini bartaraf qiladi. Mis ta'sirida organizmda A va E, V guruhi vitaminlarining to'planishi yuz beradi, yog'almashinuvi, shu jumladan fosfolipidlar sintezi va uglevodlar almashinuvi normallasadi, organizmning immunobiologik barqarorligi oshadi.

Ferrokomedning hamma uch komponentini tarkibi hisoblangan *glutamin kislotasi* atsetilxolin sinteziga, kaliy ionlarining tashilishiga yordam beradi, bosh miyaning oq va kulrang moddalaridagi oqsil va karbon suvlar almashinuvida ishtirok qiladi, bosh miya faoliyatini energiya bilan ta'minlanishida, folat kislotasini (pteroilglutamin kislotasi) biosintezida muxim ro'l o'ynaydi. Miya to'qimasining hujayralarida amalga oshuvchi va ATF ko'rinishida to'planuvchi energiyani chiqarilishi bilan kechuvchi oksidlanish – qaytarilish jarayonlarida muhim ro'l o'ynaydi, neyromediator funtsiyasini bajaradi va boshqalar.

Glutamin kislotasining asosiy faoliyatlaridan biri azot almashinuvi jarayonida ishtirok etishi hisoblanadi. U ammiakning zararsizlantirilishi va buyraklar orqali chiqarilishiga yordam beradi. Ammiakning bog'lanishi va zararsizlantirilishi MNT normal faoliyatida muhim ro'l o'ynaydi.

Kobavitning tarkibiga kiruvchi *vitamin U* muhim biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etib, organizmdagi metabolitik jarayonlarda: metil guruhini qaytuvchan o'tkazilishi, sulfat guruhini qaytuvchan o'tkazilishi, amin guruhini qaytuvchan o'tkazilishida asosiy ro'l o'ynaydi. Detoksikasion, regenerasiya qiluvchi, antioksidant xususiyatlariga ega. Metil guruhini qaytuvchan o'tkazilishi - reaksiyalarida hujayra membranasining fosfolipidlari, neyrotransmitterlar, nuklein kislotalari, oqsillar, gormonlar va boshqalarning sintezi uchun zarur bo'lgan metil guruhlarining donori funtsiyasini bajaradi, shuningdek radikallar va qator ekzo - va endogen tabiatli toksik birikmalarni metil guruhini qaytuvchan o'tkazilishi orqali, ularni zaxarli bo'lmagan shakllarga aylantiradi.

U vitamini ta'siri ostida gepatositlardagi endogen fosfatidilxolinning sintezini normallasuvi, membranalarning regeneratsiyasini tiklanishiga, ularning oquvchanligini va qutblanishini oshishiga yordam beradi, va natijada jigar faoliyati tiklanadi va faollashadi. U shuningdek konyugatsiyalanish

jarayonlarini faollashtirish orqali gepatositlardagi o't – safro kislotalarining toksikligini kamaytiradi, lipotrop ta'sirga ega, shu tufayli jigarining yog'li distrofiyasini oldini oladi, hamda antigistamin va antiaterosklerotik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Preparatning tarkibiga kiritilgan kobalt va misning biomajmuasi nafaqat o'zining qon yaratish faolligiga ega, balki shuningdek ta'sirining sinergik samarasi tufayli, o'zaro qon yaratish faolligini kuchaytiradi, temirning tez va samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi (Ferrokomedning tarkibida bo'lgan temirning ham, ovqat maxsulotlaridagi temirning ham), temirning gemoglobinning sintezi jarayoniga kiritilishiga yordam beradi, suyak ko'migining faoliyatini faollashtiradi. Preparat shuningdek to'qima temirining gemoglobin tarkibiga kiritilishiga yordam beradi. Ferrokomedning ta'siri ostida qisqa muddatlarda ferritin ko'rinishidagi temir zaxirasining jadal oshishi kuzatiladi.

Ferrokomedning shu xususiyatlari tufayli gemoglobinning darajasini, eritrositlar va retikulositlarning sonini erta va yuqori o'sishi kuzatiladi. Shuningdek qisqa muddatlarda astenizasiya simptomlari (umumiy xolsizlik, tez toliqish, terlash va boshqalar) ham o'tib ketadi.

Ferrokomed "ta'siridan so'ngi samara"ga ega bo'lib, buning natijasida davolash kursi tugagandan so'ng xam gemoglobinning miqdori va eritrositlarning sonini oshib borishi kuzatiladi. Bu o'z navbatida temirning o'zlashtirilishi va almashinuvi jarayonlariga jalb qilinishiga ma'sul bo'lgan, Ferrokomed ta'sirida induksiya qilingan endogen tizimlari preparatni qabul qilish to'xtatilgandan keyin ham faollashgan holatda saqlanib qolishining oqibati hisoblanadi.

Preparat temir tanqisligi holatlari uchun xarakterli bo'lgan oqsil almashinuvi jarayonlarining buzilgan bosqichlarini samarali tiklaydi va buning oqibatida u dis - va gipoproteinemik xarakterdagi xolatlarni paydo bo'lishini oldini oladi yoki ularning yo'qolishiga yordam beradi.

Preparat tarkibiga kiruvchi temir deyarli to'liq o'zlashtiriladi, va buning oqibatida Ferrokomed qabul qilinganida axlatning qorayishi va dispeptik holatlar kuzatilmaydi.

Ferrokomed uzoq qo'llangan hollarda me'dani va ingichka ichakni shilliq qavatlariga qitiqlovchi va eroziv ta'sir ko'rsatmaydi va qon yaratish a'zolarining faoliyatiga ham susaytiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi.

Preparat immunmodulovchi samaraga ega, bu immuntanqisligi holati bilan birga kechuvchi kamqonlikning og'ir va uzoq surunkali shakllarida muhim ahamiyatga ega.

## Qo'llanilishi

Preparat xar qanday genezli temir tanqisligi anemiyalarida, aralash genezli anemiyalarda

(vitamin V12, folat kislotasi va temir tanqisligi) va surunkali postgemorragik anemiyalarda qo'llanadi.

### Qo'llash usuli va dozalari

Preparatni ichga qabul qilinadi, ovqatdan 0,5-1 soat oldin (me'da – ichak yo'llarining kasalliklari bo'lgan bemorlarga ovqatdan keyin), suv bilan birga quyidagi sxema bo'yicha qo'llanadi:

Anemiyaning og'irlik darajasi	Dozalari	Davolashning davomiyligi
O'ta og'ir, og'ir	1 tabletkadan kuniga 3 marta	Gemoglobin darajasi me'yorlashgunicha
O'rtacha	1 tabletkadan kuniga 2 marta	Gemoglobin darajasi me'yorlashgunicha
Engil	1 tabletkadan kuniga 1-2 marta	Gemoglobin darajasi me'yorlashgunicha

Ikki va undan katta yoshdagi anemiyasi bo'lgan bolalarga gemoglobin normallashtirish uchun kuniga bitta tabletkadan 1 yoki 2 marta buyuriladi

### Nojo'ya ta'sirlari

Preparat yaxshi o'zlashtiriladi. Juda kam hollarda engil ko'ngil aynishi bo'lishi mumkin.

### Qo'llash mumkin bo'lmagan xolatlar

Preparatni organizmda temirning miqdorini oshishi bilan ifodalanuvchi xolatlarda (gemolitik anemiya, gemosideroz, gemoxromatoz), preparatga yuqori sezuvchanlikda qo'llash mumkin emas.

### Dorilarning o'zaro ta'siri

So'rilishining yomonlashishi tufayli, tetrasiklin qatori preparatlarni Ferrokomed bilan bir vaqtda buyurish mumkin emas.

### Maxsus ko'rsatmalar

Inson organizmida temir, kobalt va mis etishmovchiligida anemiyani turli shakllarini rivojlanishiga olib keluvchi eritropoez jarayoni susayadi. Fagositoz, tabiiy killerlarning faolligi kamayadi va bu esa organizmning tashqi muxitning zararli ta'sirlariga bo'lgan qarshiligini (umumiy rezistentlikni) zaiflashishiga olib keladi, zardobning bakterisid xossalari pasayadi. Bundan tashqari, misning endogen etishmovchiligida o'sish jarayoni sekinlashadi, gipotrofiya, aorta elastinining degenerativ o'zgarishlari, pigmentasiya va me'da - ichak buzilishlari, eritrositlarni parchalanishining tezlashishi kuzatiladi, qator

donador leykositlarning etilishi to'xtaydi. Misning surunkali etishmovchiligida esa skeletdagi o'zgarishlar (raxitda kuzatiladigan holatlarga o'xshash) bilan kechuvchi osteogenezning buzilishi, uzun suyaklarning oxirlarini emirilishi yuz beradi.

Ferrokomedning qo'llash bo'yicha yo'riqnomasida ko'rsatilgan dozalash tartibiga rioya qilinganida, preparat odam organizmining nafaqat temirga, balki kobalt va mis kabi hayotiy muhim

mikroelementlariga bo'lgan sutkalik ehtiyojini to'liq qondiradi.

### Homiladorlik va laktasiya davrida qo'llanilishi

Ferrokomed bezarar dori vositalari guruhiga kirganligi tufayli laktasiya va xomiladorlik davrida, shu jumladan xomiladorlikning birinchi uch oyligida ham qo'llanilishi mumkin, bundan xomiladorlik toksikozi davri mustasno.

### Avtomobilni va murakkab mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Ferrokomedning avtotransportni boshqarish va boshqa mexanizmlardan foydalanish qobiliyatiga ta'siri yuzasidan tadqiqotlar o'tkazilmagan

### Dozani oshirib yuborilishi

Ferrokomed bezarar vositalar gruxiga mansub bo'lganligi sababli, uning dozasini oshirib yuborish xisobga kelib chiqishi mumkin bo'lgan intoksikasiya xolatining extimoliyati nihoyatda kam.

### Saqlash sharoiti

Quruq va yorug'likdan himoyalangan joyda, 25° C yuqori bo'lmagan haroratda va bolalar ololmaydigan joyda saqlansin

### Yaroqlilik muddati

4 yil.  
Yaroqlilik muddati o'tganidan keyin qo'llanilmasin.

### Dorixonalardan berish tartibi

Resept bo'yicha.

### Ishlab chiqaruvchi

"A.B.-BIOKOM» MCHJ

Kompaniya o'z maxsuloti sifati va istemolchilar sog'ligi xaqida o'ylaydi. Shuni inobatga olgan holda, preparat xaqida sizning fikr va muloxazalaringiz, uning effektivligi yoki nojuya ta'siri kuzatilgan hollarda, shuningdek dori vositasi xaqida sizlar uchun muxim

**A.B.-BIOKOM**  
Farmasevtik kompaniya

**bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha bizga yozma yoki telefon orqali  
murojat etishingizni so'raymiz**

**100053. Toshkent shaxri,  
Ezgulik ko'chasi, 27 uy**

**[biokom.uz@yandex.ru](mailto:biokom.uz@yandex.ru)**

**+99890 350-20-51**

**[www.biokom.uz](http://www.biokom.uz)**